

# **OMINA SHENLIK O'G'LINING "IMOMNING MANEKEN QIZI" ROMANI HAQIDA**

**JDPI O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi**

**Quvvatova Sayyora**

Jahon adabiyotida betakror san'at asrlari juda ko'p. Shular orasida Turkiya adabiyoti ham o'zgachadir. Bugungi Turkiya adabiyotda Yevropa adabiyotiga o'xshash asarlar ko'p uchraydi. Men o'zim o'qib chiqqan Omina Shenlik o'g'lining "Imomning maneken qizi" asari haqida to'xtalmoqchiman.

Bu asarda XX asr Turkiya hayoti yoritilgan. Yoqub imom oilasi orqali adib o'sha davrdagi muhitni ko'rsatib bera olgan. Asar nomidan ham ko'rinib turibdiki Yoqub imomning qizi Fotima maneken bo'lishni xohlaydi lekin bu ishini hech kim maqullamaydi albatta. To'g'ri uni ishi xato edi ammo bu holga yetib kelishga uni o'sha muhit majbur qilgan. Asar boshlanishini Fotimani kundalik hayotidan nolishi bilan boshlanadi.

Uylari oddiy ekanligi, otasini imom ekanligi yoqmasligini tez tez aytar edi. Fotima otasiga juda qo'pol muomila qilsa ham Yoqub imom uni tushunishga harakat qilardi. U ayb o'zida pul kam topishida deb o'ylaydi va imomlikdan tashqari ish bilan ham shug'ullanadi. Fotima dastlab uyga kelmaydigan odat chiqaradi keyinchalik ishga kirib hijobini yechadi. Turli xil mashinalarda ketadigan bo'ladi.

Bularni barini Yoqub imom ko'rib tursa ham uni urmaydi. Nasixat qilib yo'ldan qaytarib olaman deydi. Afsus, unday qila olmadi. Fotima uyiga umuman kelmay qo'ydi. U maneken bo'ldi. Ammo Islom dinidan ham voz kechdi. Hayot yo'llari uni ya'ni atrofida gilar unga dars bo'ldi. Bonu ismli dugonasi o'z jinsini o'zgartirgani, hayotda juda ko'p qiyinchiliklarga uchragani Fotimani o'ylanishiga sabab bo'ldi.

Manekenlarni ko'pi aslida boshqa shaxs ekanligi Fotimaning ko'zlarini ochdi. Unga yana ko'plarning hayotidan saboq oldi. U Islom dini naqadar buyuk ekanligi, otasini mehribon insonligini asar yakunida tushunib yetdi. U uyiga qaytishga axt qildi. Uyiga qaytish ham oson bo'lmadi. Balki otam kechirmasa, uydan haydasa deb o'yladi u. Shunda ham u qaytdi. Mahallasiga yetib kelganda janoza o'qilyotgandi.

U otasi deb o'ylab yig'lab dod faryod qildi. Keyin otasi tirikliginibildi. Shu payti Yoqub imom ham bir chekkada yi'g'lab yotgandi. U qizini kechiradi. Bir qiz Islom diniga qaytadi. Asar yakunlanadi. Adiba bu asar orqali Islom dinini buyukligini ham madh etgan.

O'sha davrdagi Turkiyadagi axvol hamma yevropaga taqlid qila boshlaganligi, jins o'zgartirishlar bular og'riqli muammolar edi. Asar juda yaxshi yozilgan deb o'ylayman. Omina Shenlik o'g'li o'zi dinga oid asarlar yozadi. Yana bitta asari "Nasroniy atirguli" asaridir. Bunda xristian dini haqidagi asardir.